Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

PRIMAT SHAHAR NAZARIYASI VA KO‘RSATKICHLARI

Husanov Suxrob Samariddin o’g’li
Navoiy Davlat Universiteti
Tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya (o‘rganish obyekti bo‘yicha)
mutaxassisligi magistratura bitiruvchisi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.23204528

Annotatsiya. Maqolada shahar primatligi (makrosefaliya) nazariyasi va uning tushunchaviy rivoji tahlil qilinadi. Primat shahar atamasi fanga 1939-yilda Mark Jefferson tomonidan kiritilgan. Shu bilan birga, tadqiqotda bu hodisa Jeffersondan ancha oldin ham turli nomlar ostida o'rganilganligi ko'rsatib berilgan: "ville capitale", "haqiqiy poytaxt", "Hauptstadt", "primatie urbaine" va boshqalar. Maqolada primat shahar va poytaxt tushunchalarining o'zaro farqi yoritilgan. Shuningdek, XVII–XIX asr mutafakkirlarining (Le Maytri, Petti, Defo, Monteske, Tyunen, Keri, Tokvil, Dyupon-Uayt, Kondorse, Bryus va boshqalar) qarashlari taqqoslanadi. Ularning bir qismi primatlikni davlat qudrati va milliy birlik omili deb baholagan. Boshqalari uni hududiy tengsizlik, siyosiy mo'rtlik va resurslarning nomutanosib taqsimlanishi manbai deb hisoblagan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, shahar primatligi siyosiy markazlashuv, boshqaruv shakli va davlat tuzilishi (unitar yoki federativ) bilan chambarchas bog'liq. Jeffersondan avvalgi tadqiqotlar asosan uning siyosiy jihatiga e'tibor qaratgan.
Kalit so'zlar: primat shahar, shahar primatligi, makrosefaliya, Mark Jefferson, poytaxt shahar, siyosiy markazlashuv, urbanizatsiya, federalizm, hududiy tengsizlik.

THEORY AND INDICATORS OF THE PRIMATE CITY

Abstract. The article examines the theory of urban primacy (macrocephaly) and the development of the concept. The term "primate city" was introduced by Mark Jefferson in 1939. The article shows that the phenomenon had been studied long before him under different names, such as "ville capitale", "genuine capital", "Hauptstadt" and "primatie urbaine". It distinguishes the primate city from the capital city. It also compares the views of 17th–19th century thinkers (Le Maître, Petty, Defoe, Montesquieu, Thünen, Carey, Tocqueville, Dupont-White, Condorcet, Bryce and others). Some of them saw primacy as a source of state power and national unity. Others saw it as a cause of regional inequality, political fragility and uneven distribution of resources. The findings indicate that urban primacy is closely linked to political centralization, the form of government and the state structure (unitary or federal). Pre-Jefferson scholarship focused mainly on its political dimension.
Keywords: primate city, urban primacy, macrocephaly, Mark Jefferson, capital city, political centralization, urbanization, federalism, regional inequality.

Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

ТЕОРИЯ ПРИМАТ-ГОРОДА И ЕГО ПОКАЗАТЕЛИ

Аннотация. В статье рассматривается теория городской примативности (макроцефалии) и история развития этого понятия. Термин «примат-город» был введён Марком Джефферсоном в 1939 году. Показано, что это явление изучалось задолго до него под другими названиями: «ville capitale», «настоящая столица», «Hauptstadt», «primatie urbaine» и др. Проводится различие между примат-городом и столицей. Сопоставляются взгляды мыслителей XVII–XIX веков (Ле Метр, Петти, Дефо, Монтескьё, Тюнен, Кэри, Токвиль, Дюпон-Уайт, Кондорсе, Брайс и др.). Одни видели в примативности источник мощи государства и национального единства. Другие считали её причиной территориального неравенства, политической уязвимости и неравномерного распределения ресурсов. Результаты показывают, что городская примативность тесно связана с политической централизацией, формой правления и государственным устройством (унитарным или федеративным). Дожефферсоновские исследования уделяли основное внимание её политическому аспекту.

Ключевые слова: примат-город, городская примативность, макроцефалия, Марк Джефферсон, столица, политическая централизация, урбанизация, федерализм, региональное неравенство.

Jahon mamlakatlarining aksariyatida poytaxt shaharlar doimo eng yetakchi va iqtisodiy jihatdan eng boyi hisoblanib kelgan. Mana shunday shaharlar holatini o’rganish va ifodalash uchun shahar primatligi tushunchasi qo’llaniladi.

Primat shahar – mamlakat, viloyat yoki tumanning yetakchi shahri hisoblanib, avvalo demografik, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa jihatlar bo’yicha o’zi primat bo’lgan ma’muriy birlikdagi boshqa shaharlardan karrasiga kattaroq bo’lgan shahardir. Primat shahar atamasi fanga dastlab 1939-yilda geograf Mark Jefferson tomonidan kiritilgan. Jefferson primat shaharga “o’zidan keyingi o’rinda turuvchi shahardan aholisi kamida 2 marta ko’p bo’lgan shahar”, deya ta’rif bergan. Shuningdek, primat shahar mintaqa yoki mamlakatning eng katta immigratsiya markazi bo’lib ham xizmat qiladi.

Geografiya fanida esa aholining bir shaharga haddan tashqari ko'p joylashganligi va mamlakat yoki mintaqaning asosiy shahrining rivojlanishi orqali ko'pincha boshqa shaharlar rivojlanishiga to’siq bo’lishi shahar primatligi yoki shahar makrosefaliyasi deb ataladi.

Tushunchaning tarixi. Primat shahar tushunchasi 1939-yilda vujudga kelgan bo’lsada, undan ancha avval va ko’p bora ushbu tushunchaga murojaat qilingan. Ammo, ushbu fenomen o’tmishda berilgan nomlar butkul boshqa nomlar bilan va boshqacha ko’rsatkichlar bilan ifodalangan. Jeferson ushbu tushunchani o’zining “Primat shaharlar qonuni” maqolasi orqali tushuntirib bergan. Jeffersonning o’zi ham ushbu tushunchani kashf etganini da’vo qilmagan. (MEYER, 2019) Shuningdek, primat shahar tushunchasini poytaxt shahar tushunchasi bilan deyarli bir xil ekanini ta’kidlaydi. Ammo, Jefferson ham, boshqa olimlar ham anglaydiki, poytaxt avvalo siyosiy markaz hisoblanadi hamda poytaxtlar doimo demografik va iqtisodiy yetakchi bo’lavermaydi. Xususan, Amerika Qo’shma Shtatlari poytaxti – Vashington hech bir jihatdan Nyu-York, Los-Anjeles yoki Chikago bilan bellasha olmaydi.

Avvalroq, Aleksandr le Maytri o’zining “La Metropolitee” (1682-y) asarida geografik, siyosiy, iqtisodiy, demografik va madaniy jihatdan ustun bo’lgan markaz haqida yozgan va ushbu tushunchani Mark Jeffersondan deyarli 300 yil avval o’rgangan. La Maytre ushbu tushunchani ifodalashda “ville

capitale” (fransuzcha, “poytaxt”) va “villa metropolitaine” (fransuzcha, “metropolitan shahar”) atamalarini qo’llagan. “Poytaxt” yoki unga o’xshash boshqa so’zlarni mamlakatlar ilm-fanida tez-tez qo’llanilayotganini ko’rgan Jefferson muqobil va teng qiymatli boshqa so’z qo’llashni o’ylay boshlaydi. Chunki, AQSH dastlab tashkil qilinganda “capital” ya’ni, poytaxt atamasi nafaqat siyosiy markaz, balki barcha sohalarda eng yetakchi shahar ma’nosini ham anglatgan. Jumladan, Noah Vebster 1828-yilda “capital city”ni “imperiya, qirollik, shtat yoki provinsiyaning metropoliyasi yoki bosh shahri” deb ta’riflagan. (MEYER, 2019) Ammo, Villiam Darby “primacy” (ustunlik) atamasini faqat hukumat qarorgohi mavjud joy uchun mansub, demagan edi. Shu uchun “poytaxt” va “primat shahar” atamalari umumiy bo’la olmaydi. Biroq XX asr boshlariga kelib, Amerika ingliz tilining keng qamrovli lug‘atlaridan biri “capital” atamasini faqat “mamlakat, shtat yoki provinsiyada rasmiy hukumat joylashgan shahar yoki tuman darajasida sud hokimiyati joylashgan shahar” sifatida ta’riflagan. (Meyer, Urban Primacy before Mark Jefferson, 2019)

Jeferson Primat shahar atamasini 199-yilda har tomonlama yetakchi shahar uchun qo’llagan bo’lsada, undan keyin ham yetakchi shaharlar uchun boshqa atamalar qo’llanilishi davom etgan. Xususan, iqtisodchi Kennet Boulding “capital city” atamasini “mamlakatdagi eng yirik shahar” ma’nosida qo‘llab, uni “mamlakat hayotida hukmronlik qiluvchi, axborot oqimlarining markazlashgan manbai va hokimiyat chiqishlarining markaziy nuqtasi sifatida faoliyat yurituvchi hamda so‘zning kelib chiqishi anglatganidek, butun mamlakat tanasi uchun bosh vazifasini bajaruvchi shahar” deb ta’riflagan. (Meyer, Urban Primacy before Mark Jefferson, 2019)

Shuningdek, Jeyn Yakobs 1960-yilda mamlakatdagi ustun shaharni ifodalash uchun agar yetakchi shahar poytaxt bo’lsa “haqiqiy poytaxt” (“genueni capital”), agar primat shahar poytaxt bo’lmasa, uni “de fakto poytaxt” (“de facto capital”) atamasini qo’llashni tavsiya qilgan. Keyingi ilmiy ishlarida esa yetakchi shaharlar uchun Jeyn Yakobs yuqoridagi atamalar o’rniga “fil shahar” atamasini qo’llagan. Britaniyalik tarixchi Perry Anderson mamlakatining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida markaziy o‘rin tutuvchi shaharni “haqiqiy Hauptstadt” (nemischada “haqiqiy poytaxt”) deb ataydi. Shuningdek, u marksistligi sabab yana bir qancha nemischa ma’nodosh atamalar: “Metropole”, “Zentrum”, “Residenz” va “primat shahar” tushunchasiga juda yaqin bo’lgan “primatstellung” atamasini ham qo’llaydi. Fransuzzabon olimlar shuningdek, bir qancha atamalarni taklif qilgan. Jumladan, “primatie urbaine” (fransuzcha, “ustun shahar”), “macrocéphalie urbaine” (“shahar makrosefaliyasi”), “pays monolithiques” (“markazlashgan mamlakat”) atamalari qo’llanilgan. Yuqoridagilarga qo’shimcha sifatida, “monocephalous states” (bir markazli davlatlar), “urban giants” (“gigant shahar”) hamda “urban concentration” (“shahar konsentratsiyasi”) kabi atamalarni qo‘llaganlar. Bundan tashqari, Jefferson iborasining ingliz tilidagi go‘yo mutatsiyaga uchragan shakllari ham uchraydi: “prime cities”, “primary cities” va hatto “primal cities” va boshqalar. Ushbu tushunchalarga mualliflar tomonidan berilgan ta’riflar Jeffersonning “primat shahar” tushunchasiga berilgan ta’rifdan deyarli farq qilmaydi.

Ilmiy munozaralar davomida Jefferson ta’kidlaganidek, barcha davlatlarda primat shahar mavjud bo’lish holati ilmiy jihatdan isbotlanmagan. Ya’ni bugungi dunyoda primat shahri mavjud bo’lmagan mamlakatlar ham bisyor. Ammo, primat shaharlari bor mamlakatlar uchun shaharlar primatligi hodisasining mavjudligi ushbu mamlakat hayoti uchun muhim omildir.

Shaharlar primatligi haqida yozgan Jeffersondan oldingi ayrim mualliflar, ko‘pincha “oldindan aytilganlik” da’volarida qayta kashf etiladigan noaniq yoki chekka shaxslar emas, balki o‘z davrida

mashhur bo‘lgan va hozir ham ijtimoiy tafakkur, jamoat hayoti yoki adabiyot tarixida muhim o‘rin tutadigan shaxslardir. (Meyer, Urban Primacy before Mark Jefferson, 2019)

Shaharlar primatligi (qanday nom bilan atalishidan qat’i nazar) shunchaki aniqlab bo‘ladigan hodisa sifatida tan olishdan tashqari — bu borada Jefferson o‘ziga haqli ravishda hech qanday yangilik da’vo qilmagan — mualliflar uni natija (oqibat) sifatida ko‘rib, uning sabablarini aniqlashga harakat qilishlari mumkin; yoki aksincha, uni sabab sifatida talqin qilib, u keltirib chiqaradigan oqibatlarni tahlil qilishlari mumkin. (Meyer, Urban Primacy before Mark Jefferson, 2019)

Mark Jefferson o’zining 1939-yilda yozgan maqolasida primat shahar nafaqat aholisi va boshqa moddiy jihatlardan ustun bo’lishini, balki millliy ta’siri jihatdan ham ustun bo’lishi kerakligini aytib o’tgan. Biror shaharning mamlakat miqyosida primat bo’lishi uni yanada primatlashtiradi. Ya’ni jarayon o’z-o’zini generatsiya qiladi va bunda markazlashuvning o’rni katta. Shuningdek, mamlakatda primat shaharning mavjudligi – unda milliy o’zlikning shakllanganligini ham anglatadi. Jeffersonga ko’ra, ushbu mamlakat o’zining yetuklik bosqichiga yetgan hisoblanadi. Jefferson shuningdek, primat shahri mavjud bo’lmagan davlatlar haqida bunday davlatlar chuqur etnik yoki mintaqaviy bo’linishlar sababli milliy o’zlikni shakllantira olmagan geterogen davlat[1] bo’lishi ehtimolini mavjudligini ta’kidlaydi. Yangi tashkil topgan davlatlar yoki avval mustamlaka bo’lgan mamlakat poytaxtini hali ham poytaxt deb hisoblaydigan dominionlar va yoki kichik davlatlarda primat shahar mavjud bo’lmaydi.

Britaniyalik davlat arbobi Jeyms Brays (1838-1922-yy) 1888-yilda o’zining “Amerika Hamdo’stligi” asarida “poytaxt shahar”ni nafaqat siyosiy markaz, balki aholi, iqtisodiy qudrati va ijtimoiy maqomiga ko’ra yetakchi shahar ekanini ta’kidlaydi. Shuningdek, Braysga ko’ra, poytaxtda buyuk shaxslar ham umrguzaronlik qiladi. Shuningdek, ilmiy va huquqshunoslik kasblarining yetakchilari ham mana shu “poytaxt”da to’planadi. Qo’shimchasiga, boshqa shaharda yashovchi yuqoridagi kasb vakillari ham poytaxtga doimiy intiladilar.

Nemis tarixchisi va deputat Genrix fon Traychke (1834-1896-yy) o’zi Hauptstadt – poytaxt shaharning mamlakatda mavjud bo’lishini normal deb hisoblaydi va hauptstadtsiz mamlakat uzoq umr ko’rishi mumkin emas, degan fikrga to’xtaladi. Traykche “hauptstadt” atamasini Jeffersonning “primat shahar” tushunchasi o’rniga qo’llagan va “siyosiy, intelektual va moddiy hayot” jamlangan shahar sifatida ta’riflagan. U shuningdek, Germaniyada “hauptstadt” mavjud emasligi haqida fikr bildirarkan, Berlin kelajakda primat shahar bo’lishidan umid bildirgan, bo’lmay qolishidan esa xavotir olgan.

XIX asr o’rtalarida yashab o’tgan nemis iqtisodchisi I.G. fon Tyunen (1783-1850-yy) shahar primatligining mavjudligini odatiy holat sifatida ko’radi. Tyunenga ko’ra ideal mamlakatlar doim bitta ustun shaharning mavjud bo’lishini taqozo qiladi.

Tyunenning yozishicha, davlat amaldorlari, ilm ahli, badavlat va nufuzli qatlam vakillari hukumat qarorgohi, u taqdim etadigan imkoniyatlar va qulayliklar tufayli poytaxtga intiladilar; ularning ehtiyojlariga xizmat qilish uchun esa hunarmandlar va xizmat ko‘rsatish sohasiga mansub juda ko‘p odamlar ham shu yerda to‘planadi. (Meyer, Urban Primacy before Mark Jefferson, 2019) Ammo, ko’pgina qayta ishlovchi sanoat va yuqori malakani talab qilmaydigan sohalar shahardan tashqarida joylashsa yaxshiroq rivojlanadi. Tyunenga ko’ra, shaharning primatlashishiga sabablar shunchalik sodda va aniq ravshanki, uni o’rganishga hojat ham yo’q.

XVIII asr o’rtalarida yashab ijod qilgan fransuz iqtisodchisi Mirabo markizi Viktor di Rikete (1717-1789-yy) ham agar shaharlarning primatlashuvi oldi olinmasa primat shahar tabiiy ravishda

[1] **Geterogen davlat** — aholisi turli millat, til, madaniyat va mintaqalardan iborat bo‘lgan davlat.

vujudga keladi, degan fikrda bo'lgan. Riketega tegishli jumlalar haliham dolzarb: "Hokimiyat tabiatan hamma narsani o'ziga tortadi". Shuningdek, u Parijning Fransiyadagi primatlashuvi rasmiy Parij mamlakatning qolgan hududlari ustidan hukmronlik qilishini ta'minlashini aytgan.

Amerikalik tadbirkor va yozuvchi Genri Keri (1793-1879-yy) Jefferson yoki Tyunendan farqli ravishda shahar primatliligini tanqid qiladi va shahar primatliligi tabiiy hodisa emas, degan xulosaga keladi. Kerining 1858-1860-yillarda nashr etilgan "Ijtimoiy fanlar prinsiplari" asarida shahar primatliligi siyosiy markazlashuvning hosilasidir, degan xulosaga keladi. Keriga ko'ra, AQSHning federativ ekanligi mamlakatda yagona primat shahar vujudga kelishini oldini olgan hamda primatlilik bir shtat doirasida saqlanib qolgan. Bu haqida Keri shunday fikrlarni bildirgan: "Agar biz shtatlar hokimiyatini yo'q qilib, Angliya, Fransiya yoki Rossiyadagiga o'xshash markazlashgan hukumatni Nyu-York shahrida joylashtiradigan bo'lsak, u nafaqat London hajmiga yetgan bo'lardi, balki tez orada undan ham ancha oshib ketardi." Shuningdek, o'sha davrdagi nemis mamlakatlarida markazlashgan davlatning mavjud emasligini (muallif izohi: Keri ushbu asarni yozgan davrda Germaniya bir qancha mayda davlatlarga bo'linib ketgan bo'lgan. Faqatgina 1871-yilda Germaniya yagona davlatga birlashgan) Germaniya yerlarida bironta primat shahar yo'qligi bilan izohlaydi.

Zamonaviy antropologiyaning asoschisi l.G.Morgan (1818-1881-yy) primat shaharning mavjudligini mamlakatning boshqaruv shakliga bog'laydi. Mamlakatda monarxik tuzum hukm sursa va hukumat mamlakat miqyosida to'liq hukmronlikni istasa, primat shaharlar albatta hosil qilinadi. Morganning quyidagi fikri yuqoridagi fikrlarni to'liq ochib bera oladi: "Monarxiyalarda poytaxt shahar davlatning o'zidir, undan tashqaridagi hamma narsa esa viloyaviy va bo'ysunuvchi hisoblanadi. … Bu buyuk shaharlar hamma narsa tomon intiladigan markazlar, va barcha narsalar tarqalib chiqadigan o'choqlardir."

Polshalik siyosiy yozuvchi Adam Gurovskiy (1805-1866-yy) mamlakatning qolgan barcha shaharlaridan ustun turuvchi shahar uchun "poytaxt" atamasini qo'llagan. Gurovskiy uchun poytaxt shunchaki siyosiy-ma'muriy markaz emas, balki butun mamlakat aholisi hayotining butun mazmuni deya qaragan. U Amerikaga ko'chib o'tgach o'tmishdagi va amaldagi vatani o'rtasidagi farqni primat shaharning mavjud emasligida ko'radi. AQSHda primat shaharning mavjud emasligini esa federalizm bilan ifodalaydi. Chunki federal tizim yagona shaharning primatlashib ketishiga qarshilik qilardi. AQSHga ko'chib kelgan yana bir olim Frensis Libyer (1800-1872-yy) 1853-yilda yozilgan "Fuqarolik erkinligi va o'zini o'zi boshqarish haqida" asarida shahar primatlashuvini siyosiy markazlashuv bilan bog'laydi hamda bu haqida alohida bob yozadi.

Rus-fransuz mutafakkirlaridan Jak Novikov (1849-1912-yy) shahar primatlashuvi siyosiy markazlashuvga, siyosiy markazlashuv esa poytaxtning boshqa ma'muriy birliklar ustidan ta'minlanishiga olib kelishi haqida yozgan. Ya'ni, primat shaharning mavjudligi "hukmdor"ga mamlakatda yakkahokimlik o'rnatishda yordam berishi haqida mulohaza qiladi.

Yuqoridagi fikrlardan ta'sirlangan Treytshke birlashgan Germaniyada primat shaharning vujudga kelish xavotirlarini rad etgan. Balki bunga Germaniyaning federativ mamlakat ekani dastak bo'lgan bo'lishi mumkin.

Nafaqat bugungi kunda, XIX-XX asrlarda ham Fransiyada yagona primat shahar – Parij mavjud edi hamda Parij ushbu ustunlik deyarli muhokama qilinmasdi. Ammo, ushbu primatlilik doim olimlarni mulohaza qilishga chorlagan va aksar olimlar "muammo"ning sababini siyosiy motivlarda ko'rgan.

Fransuz mutafakkirlaridan Monteske primat shaharning kattalashib ketishini mamlakatning despotik[2] ekanini sabab sifatida ko'rsatgan. Despotik bo'lmagan mamlakatlarda aholi manzilgohlari o'rtasidagi muvozanat o'rnatilgan bo'ladi.

Fransiyada bir muddat bosh vazir lavozimida ishlagan Odilon Barrot (1791-1873) mamlakat Respublika boshqaruv shaklida bo'lsada avvalgi monarxiya davridagidek markazlashuv siyosatini davom ettirayotganidan afsusda edi. Unga ko'ra, Parijning primatlashuvi boshqa regionlarda sanoat, xizmatlar va ish o'rinlari yaratilishiga keskin ta'sir ko'rsatgan



1-rasm. Osiyo mamlakatlari primat shaharlar

Iqtisodchi Sharl Dyupon-Uayt ham (1807-1878-yy) fikriy jihatdan Odilon Barrot bilan umumiyliklarga ega edi. Unga ko'ra, mamlakat siyosiy markazlashuvi sabab aholi, iqtisodiyot, madaniyat va boshqa ne'matlarning bir hududda to'planishi butun mamlakat tafakkkurining ham bir joyga jamlanishiga sabab bo'ladi. Bu esa mamlakatda geografik (hududiy) mehnat taqsimotini to'laqonli shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Amerikalik faylasuf Brouks Adams AQSH o'zining primat shahriga ega bo'lmasligi sababidan resurslardan samarali foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lgan. Shuningdek, La Maytri ham shunga o'xshash fikrlarni aytgan. Maytriga ko'ra, agar tijoratchilar, tadbirkorlar, intelektuallar, madaniy shaxslar mamlakat bo'ylab tarqalib ketgan bo'lsa, milliy salohiyatning asosiy qismi yo'qotiladi hamda behuda sarflanadi. Agar primat shahar va unga bog'liq ravishda siyosiy markazlashuv mavjud bo'lsa, ushbu resurslar bir markazga to'planadi. Buni huddi antisiklonda havodagi namlikning atrofga tarqalganligi sabab yog'insiz bo'lishi yoxud siklonda suv bug'larining markazga to'planganligi sabab yog'ingarchilik bo'lishiga qiyoslashimiz mumkin.

[2] **Despotik davlat** — bu **barcha siyosiy hokimiyat bitta shaxs (yoki tor doiradagi guruh) qo'lida jamlangan**, u **huquqiy cheklovlarsiz** yoki juda zaif cheklovlar bilan boshqaradigan davlat shaklidir.

Sent Perre Yevropada doimiy tinchlikni saqlash loyihasi muallifi sifatida mamlakatning poytaxtini primat shaharga aylantirish tarafdori bo'lgan. Sent Perrega ko'ra, poytaxtning primatlashuvi aholining bilim saviyasining oshishiga, ichki qo'zg'olonlarni osongina bostirilishiga, tashqi dushmanlarga qarshi tabiiy va inson resurslarining samarali ishga solinishiga, milliy nufuzning ortishi va savdo-sotiq ishlarining qulaylashuviga olib keladi. Xulosa qiladigan bo'lsak, Sent Perre primat shahri bor mamlakatni primat shahri mavjud bo'lmagan mamlakatga nisbatan qudratliroq degan fikrda edi.

Shuningdek, Gurovskiy va Dyupont ayt kabi olimlar ham Sent Perrega hamfikr bo'lishgan hamda primat shaharning mamlakat taraqqiyotidagi o'rini beqiyos baholashgan.



2-rasm. Afrika mamlakatlari primat shaharlari.

XVII-XVIII asrlarda ko'plab ingliz yozuvchilari London shahrining haddan ortiq primatlashuvi haqida ko'p fikr yuritganlar. Xususan, g'arb siyosiy aqliga ko'ra davlat ham tirik mavjud kabi tug'iladi, kattalashadi, qariydi va o'ladi. Shunga ko'ra, mualliflar kattalashib ketayotgan Londonni tananing kattalashib ketgan bosh yoki taloq bilan qiyoslashadi. Ushbu organlarning insonda ham, davlatda ham kattalashib ketishini xavfli hisoblaganlar. 1683-yilda Uilyam Petti (1623-1687), keyinchalik Sen-Pyer shaharning primatlashuviga intilish kerakmi yoki ushbu jarayondan uzoqlashish zarurmi, degan savolni qo'ygan. Bir nechta me'zonlar, jumladan mudofaa, sog'liqni saqlash, iqtisodiy turmush, fan va ta'lim kabi jami 12 ta me'zon bo'yicha tahlil qilganda faqatgina bitta me'zon bo'yicha shahar primatligi ijobiy xulosaga ega edi. Faqatgina milliy hayot belgilarigina bir markaziy shaharda to'planishi mamlakat va xalq uchun foydali degan xulosaga kelgan.

Ammo, yozuvchi Daniel Defo (1661-1731) Buyuk Britaniya qirolligida bitta markaziy shaharning bo'lishini avfzal deb bilgan. Defoga ko'ra, mamlakatda primat shaharning mavjud bo'lishi mamlakat aholisi uchun yagona immigratsiya markazi mavjud bo'lishi mamlakat va xalq uchun foydali degan xulosaga kelgan.

1939-yildan keyingi asosiy ilmiy ishlar shaharlar primatligining salbiy oqibatlar haqida edi. Shotlandiyalik faylasuf Henri Xoum (1696-1782) huddi Uilyam Petti kabi primat shaharlarning mamlakatda mavjudligi yoki mavjud emasligining ijobiy va salbiy tomonlarini solishtirib o'tgan. Henri Xoumga ko'ra primat shaharda barcha resurslarning to'planib qolishi chekka viloyat, shahar va qishloqlarda iqtisodiy sohalar markaz shaharga nisbatan ortda qoladi. Bu iqtisodiy va siyosiy notengliklarni vujudga keltiradi va mamlakatda siyosiy birdamlikni darz ketishiga olib keladi. Henri Xoum shuningdek, mamlakatda ulkan bir shaharning mavjudligi barqaror muvozanatni buzadi hamda Fransiya va Angliya tarixida bunga yaqqol dalillar mavjud ekanligini isbot sifatida keltiradi. Henri Xoum Buyuk Britaniya hukumatiga bir nechta takliflar bilan chiqadi:

- London shahrining hajmini keskin qisqartirish;
- Londonning "ortiqcha" aholisini Buyuk Britaniya bo'ylab tanlangan 9 ta markazga qayta taqsimlash:
- Taqsimlash adolatli amalga oshishi uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar joriy etish va boshqalar.

Amerikalik tadqiqotchi Bryusning fikrlari Jeffersonning fikrlaridan farq qilgan holda, Bryus primatlikni ham ijobiy, ham salbiy taraflarini sanab o'tgan. Bryus primat shahar mavjud mamlakatda jamoatchilik fikrining bir markazda jamlanishi primat shahri mavjud bo'lmagan davlatga nisbatan tezroq, ammo va shoshqaloqlik bilan yuzaki kechishiga e'tibor qaratgan. Shunigdek, poyaxt primat shahar bo'lmagan mamlakatlarda hukumat aholiga hukmini o'tkaza olmasligini ham taxmin qilgan.

Gurovskiyga ko'ra esa (1857), primat shahri mavjud mamlakat siyosiy jihatdan juda mo'rt bo'ladi va dushman tomonidan birgina markaz shaharning egallanishi butun mamlakat qo'ldan ketishini anglatadi. Fransuz faylasufi Aleksis de Tokvelli esa mamlakatda primat shaharning mavjudligi butun bir mamlakat hayotini primat shahar aholisiga topshirib qo'yishi mumkinligi haqida yozadi hamda primat shaharlar bo'yicha bu holat Yevropada yaqqol ko'zga tashlanishi haqida yozgan. Shuningdek Barrot ham bu fikrlarni yoqlab chiqqan va uning siyosiy fikrdoshi Elias Regno primat shahar kuch manbayimi yoki zaiflik, degan savolga zaiflik deya javob bergan.

Fransuz olimi Dyupon Vayt mamlakatda primat shaharlarning mavjudligi qo'zg'olonlar bo'lishiga zamin yaratishi va Parij bunga yaqqol misol ekanini yozgan. Shuningdek, shahar primatligining ijobiy tomonlari haqida gapirar ekan, primat shahar vujudga keltiradigan siyosiy markazlashuv despotizmga qarshi kafolat vazifasini o'tashi haqida yozgan.

Fransuzlar mamlakatda primat shaharning mavjudligi resurslar taqsimotinining nomutanosib bo'lishiga olib kelishi haqida yozar ekan, primat shaharlarni parazit xususiyatga ega ekani haqida fikr bidirganlar. Resurslarning

ushbu nomutanosib taqsimoti esa mamlakatning qolgan hududlarini qashshoqlanishiga olib keladi.



3-rasm. Shimoliy va Markaziy Amerika mamlakatlari primat shaharlari.

Markiz de Kondorse (1743-1794) 1790-yilda Milliy Assambleyadagi nutqida primat shahar parazit emasligi va har bir davlatda albatta primat shahar mavjud bo'lishi kerakligi haqida yozgan. Kondorsega ko'ra, mamlakat kattaligi va qudratli ekani uning poytaxtining boy va aholisi ko'pligiga to'g'ri proporsionaldir. Shuningdek, Kondorse Parijni primatligini sun'iy kamaytirish uchun qilinadigan harakatlar salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida yozgan.

XVIII asrda fransuz faylasufi Monteske ustun shahar milliy birlik ruhini shakllantirishi haqida yozar ekan, Fransiya va Germaniyani taqqoslaydi. Monteske Fransiyada markazlashgan mamlakatning mavjudligini primat shahar – Parijni mavjudligi, Germaniyaning tarqoqligi esa bironta ham ustun shahar mavjud emasligiga bog'laydi. Primat shahar shuningdek, madaniy millat yarata olishini yozgan Monteskega ko'ra, "Parij fransuzlarni yaratdi" degan iqtibos keltiradi.

James Bryus primat shaharning mamlakat miqyosida ham ijobiy, ham salbiy oqibatlari mavjudligi keltirib o'tgan. Barrot esa primat shahar mamlakatni madaniy jihatdan yuksaltirishi haqida yozgan. Ammo Fransiya misolida bir shaharning ustunligi viloyatlar aholisi ilmiy va ma'naviy qashshoqlashuviga olib kelishi mumkinligini ham istsino qilmagan. Jak Novikov va Frederek le Play ham Barrotni fikrini yoqlashgan.

Shahar primatligi tushunchasini fanga Jefferson kiritgan bo'lsada, undan avvalgi ilm-fan dunyosida ushbu tushuncha ma'nosini beruvchi atamalar juda ko'p edi. Jeffersondan avvalgi mutafakkirlar shahar ustunligini asosan siyosiy jihatiga e'tibor qaratgan. Xususan, Pyer le Maytri va Uilyam Petty primat shahar tushunchasini XVII asr Yevropasidagi iqtisodiy merkantilizm va siyosiy absolutizm doirasida o'rgangan. Aleksis de Tokvelli, Barrot va Gustav Dyupon Uayt esa XIX asrda demokratiya va

urbanizatsiyaga bog'lab tadqiq etgan. Jefferson esa primat shahar tushunchasi bo'yicha Yevropadagi holatni namuna sifatida ko'rsatgan.



4-rasm. Janubiy Amerika mamlakatlari primat shaharlari,

Umuman olganda, mamlakatida primat shahri mavjud bo'lgan olimlar ustun shaharlarning ijobiy tomonlarini, primat shahri mavjud bo'lmagan olimlar esa salbiy tomonlariga ko'proq to'xtalgan. Shunga qaramay, bugungi kunda olimlar "primat shahar" deb ataydigan g'oyaning mazmuni avvalgi ko'plab ifoda va qo'llanishlarda ham aniq tanib olinadi. Jeffersonning o'zi ham "primat shahar" atamasi avvaldan mavjud bo'lgan "poytaxt shahar" tushunchasiga teng ekanini ta'kidlagan. (Meyer, Urban Primacy before Mark Jefferson, 2019)

"Vatandoshlik dasturi" kitobida muallif Yulo Vo'glayd vatandoshlar predmet va hodisalarni bir xil terminlarda anglashi haqida yozilgan. Primat shaharlar tushunchasidagi eng katta muammo ham institutsional tarqoqlik sanaladi. Ya'ni turli davrlarda turli millat olimlari o'zaro xabarsiz holda ustun shaharlarga turlicha nom va ta''rif berishgan. Tushunchaning ijobiy va salbiy tomonlari haqida turlicha fikrda bo'lganlar. Ushbu jarayonga yechim sifatida shahar primatligi tushunchasining tub ma'nosini Geografiya orqali anglansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Makroiqtisodiyotda John Maynard Keynesning "Bandlik, qiziziqsh va pulning asosiy nazariyasi"(The General Theory of Employment, Interest and Money) asaridagi g'oyalar aslida undan oldingi mualliflar tomonidan ham aytilgan degan da'volarni baholar ekan, Don Patinkin (1982) shunday fikr bildiradi: g'oyaning haqiqiy muallifi — uni matnning asosiy g'oyasiga aylantirgan shaxsdir; ya'ni uni shunchaki boshqa mavzular muhokamasi orasida eslatib o'tgan emas, balki uning oqibatlari va

ahamiyatini shunchalik aniq tushuntirganki, ularning mazmuni ravshan bo‘lib qolgan. (Meyer, Urban Primacy before Mark Jefferson, 2019)

Nega primat shahar tushunchasi Jeffersonning ismi bilan eslanishi kerak. Sababi Jefferson shahar primatligi tushunchasiga fenomen sifatida qaradi. Jeffersondan keyin ilm-fan mana shunday tushuncha borligini ko’proq his qildi va tushuncha atrofida turli fikrlar avvalgidan ancha ko’proq muhokama qilindi. Jeffersondan avvalgi tadqiqotchilar shahar ustunligini ijobiy va salbiy tomonlariga to’xtalgan bo’lsalar, Jeffersondan keyingi olimlar shahar primatligini turli jihatlarini tadqiq etdi. Shuningdek, Jefferson dunyo tartiboti qayta o’rnatilayotgan davrda yashaganligi bilan ham ahamiyatlidir. 1945-yilda imzolangan Potsdam bosqichidan so’ng ko’plab yangi dunyo tartiboti o’rnatildi. Keyinchalik mustaqil bo’lgan yangi mamlakatlarda ham primat shaharlarning mavjudligi ham tadqiq etish boshlandi. Shu sababdan ham avvaldan pishib kelayotgan tushuncha Jefferson davriga kelib qozondan suzildi.



5-rasm. Avstraliya va Okeaniya mamlakatlari primat shaharlari.

Primat shahar bo’lish qoidalalari. Geograf Mark Jeferson primat shaharlar qonunini ulkan shaharlarni mamlakat aholisining, shuningdek iqtisodiyotining ulkan qismini egallashi hodisasi orqali kashf qildi. Primat shaharlar ko’pincha poytaxtlarga to’g’ri keladi, lekin har doim ham emas. Primat shaharga yorqin misol Parij bo’lib, Fransiyaning haqiqiy diqqat markazi qaratilgan nuqta sifatida taqdim etiladi. (Rozenberg M. , Primat shaharlar qonuni, 2019) shuningdek, Jeffersonga ko’ra primat shahar keyingi o’rinda turgan shahardan 2 marta aholisi ko’p, 2 marta katta va 2 marta muhimroqdir. Primat shaharlarni aniqlashda “daraja-hajm” qoidasidan foydalaniladi. Ushbu qoidani 1949-yilda Georg Zif mamlakatda shaharlarning darajasini aniqlash maqsadida ishlab chiqqan. Georg Zif Bayon qiladiki, mamlakatdagi eng katta shaharda 1 million vatandosh yashasa, ikkinchi darajali Shahar 1-darajali shaharning yarmi, ya’ni 500 ming kishini o’z ichiga oladi. Uchinchi darajali Shahar 333ming 333 kishini, 4-darajali Shahar esa millionning chorak qismi,ya’ni 250 ming kishini yashaydi. Qolgan

shaharlarning ham darajasi kasr va uning maxrajiga qarab aniqlanadi va hokazo. (Rozenberg M. , 2019) Bu aynan 2,3,4 karra katta bo'lishi kerak degani emas. Tushuncha kamida 2 karra katta bo'lishi kerakligini o'z ichiga oladi. Masalan, dunyodagi eng primatlashgan shahar Bangkokda 5500000 kishi, Tailandning ikkinchi yirik shahri Nonsaburi shahrida esa 251000 kishi istiqomat qiladi. Ya'ni, primat shaharda mamlakatning ikkinchi yirik shahriga nisbatan qariyb 22 marta ko'proq aholi yashaydi. 2000-yillarda esa bu ko'rsatkich 40 ga teng bo'lgan.

Shuningek, primat shahar mamlakatning eng katta immigratsiya markazi hamdir. Ammo, primat shahar hamma mamlakatlar uchun ham xos emas. Jumladan,



7-rasm. Yevropada shahar primatligi.

Yevropaning shahar primatligi xaritasini tadqiq etish orqali ko'plab mamlakatlarda primat shaharlar mavjud emasligini ko'rish mumkin. (7-rasm) Masalan, Niderlandiyaning eng katta shahri va poytaxti Amsterdamda 931000 aholi (2024) istiqomat qilsa, ikkinchi eng yirik shahri Rotterdamda 670000 kishi umrguzaronlik qiladi.

Portugaliya poytaxti va eng yirik shahri Lissabonda 2024-yilda 575000 aholiga ega bo'lgani holda, 2-eng yirik shahar Sintra shahrida 400000 aholi yashaydi. Xiotyning eng yirik shahri Shanxayda 29000000 aholi istiqomat qilsa (2025-y.), ikkinchi eng yirik shahar va poytaxt Pekinda 22000000 doimiy aholi yashaydi (2025-y.). Avstraliyada esa Sidney 5400000 kishilik aholi (2023-y.) bilan yetakchilik qilsada, ikkinchi yirik shahar Melburnda 5200000 nafar aholi umrguzaronlik qiladi.

Binobarin, ba'zan primat shaharda mamlakatning 2-o'rin va 3-o'rindagi shaharlarni qo'shib hisoblanganda ko'proq aholi yashaydi yoki kattaroq va muhimroq bo'ladi. Shuningdek, primat shahar

tushunchasi nafaqat mamlakat uchun balki, bir ma'muriy birlik uchun ham xos bo'lishi mumkin. Masalan, Kaliforniyaning primat shahri bo'lmish Los-Anjelis metropolitan hududi bilan birga aholisi 16 mln kishiga yetadi. Bu metropolitan hududi bilan birga aholisi 7 million bo'lgan San-Fransisko shahridan ikki barobar ko'p. Hattoki, shtatlar ham primat shahar qonunini hurmat qilgan holda shaharlarni nazorat ishlarini amalga oshira oladi. (Rozenberg M. , Primat shaharlar qonuni, 2019) Fransiya uchun parij primat shahar bo'libgina qolmasdan Fransiyaning har bir regionida ham o'ziga xos primat shaharlar mavjud. Masalan, Fransiyaning Uverni-Ron-Alp regioni uchun Lion shahri primat shahardir. Chunki regionning eng yirik shahri Lionda 1693000 kishi, ikkinchi yirik shahri Grenoblda esa 454000 kishi istiqomat qiladi. Primatlik nafaqat aholida balki iqtisodiyotda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Regionning yalpi hududiy mahsulot hajmi 327 mlrd dollar (2018-y) bo'lgani holda Lion shahrining yalpi hududiy mahsulot hajmi 124 mlrd dollarga teng. Primat shaharning salbiy jihatlari mamlakat miqyosida olingandagi holat ma'muriy birlik holatida ham salbiyligicha qolaveradi. Xususan, ushbu ma'muriy birlikda boshqa shaharlar yoki aholi manzilgohlari primat shahar sabab taraqqiyotda nisbatan ortda qoladi. Ammo, mamlakat miqyosida primat shahar mavjudligining ijobiy jihatlari ma'muriy birlik miqyosida o'z kuchini yo'qotadi. Ya'ni, primat shahar beradigan milliy ruhiyat va birlik konsepti endi ma'muriy birlik miqyosida ahamiyatsizdir. Chunki bu konseptni mamlakatning bosh primat shahri o'zlashtirib bo'lgan.

Primat shaharlarning tasniflanishi. Primat shaharlar tasniflanishiga ko'ra 4 guruhga bo'linadi:

- Siyosiy primat shaharlar - primat shahar mamlakatning yoki ma'muriy birlikning siyosiy markazi hisoblanadi. Ushbu shaharlar odatda poytaxtlar yoki ma'muriy birlik markazlari hisoblanadi. Masalan, Parij yoki Mexiko va boshqalar.
- Iqtisodiy primat shaharlar – primat shahar mamlakatning yoki ma'muriy birlikning iqtisodiy markazi vazifasini o'taydi. Masalan, Tokiyo, Yoxanesburg va boshqalar.
- Madaniy primat shaharlar - primat shahar mamlakatning yoki ma'muriy birlikning madaniy markazi hisoblanadi. Masalan, London, Qohira va boshqalar.
- Ko'p funksiyali primat shaharlar – bir primat shahar mamlakat yoki ma'muriy birlik doirasida ham siyosiy, ham iqtisodiy hamda madaniy markaz vazifasini o'tovchi primat shahar maqomida bo'lishi. Masalan, Toshkent – ham siyosiy, ham iqtisodiy markaz, primat shahar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M., Shaharlar geografiyasi T.: 2018, B-9.
2. Meyer, W. B. (2019). Urban Primacy before Mark Jefferson.
3. Rozenberg, M. (2019). Primat shahar qoidalar
4. https://samstat.uz
5. https://stat.uz